



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 102-117 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLİYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISHDA ICHKI AUDIT VA KOMPLAENS XIZMATINING O'ZARO MUVOFIQLIGINI TA'MINLASH



Odilov Erkin Tursunovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Toshkent viloyati
hududiy filiali rahbari

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishda ichki audit va komplaens xizmatining o'zaro muvofiqligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ichki audit va komplaens-funksiyalari o'rtasidagi vazifalar taqsimoti, mustaqillik va hamkorlik tamoyillari, shuningdek, komplaens-risklarni aniqlash, baholash va pasaytirish mexanizmlari yoritiladi. Muallif oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish uchun ichki audit va komplaens xizmatlari o'rtasidagi integratsiyalashgan modelni taklif qiladi. Mazkur yondashuv nazariy asos, amaliy mexanizm va baholash indikatorlarini o'z ichiga olgan bo'lib, ta'lim muassasalari rahbariyati uchun strategik qarorlar qabul qilishda, risklarni boshqarishda va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda qo'l kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, moliyaviy nazorat, ichki audit, komplaens xizmati, komplaens-risk, risk-boshqaruv, integratsiyalashgan nazorat, ichki nazorat mexanizmi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения взаимной согласованности внутренних аудита и службы комплаенса при совершенствовании системы финансового контроля в высших учебных заведениях. В исследовании анализируются распределение функций между внутренним аудитом и комплаенс-функцией, принципы независимости и взаимодействия, а также механизмы выявления, оценки и снижения комплаенс-рисков. Автор предлагает интегрированную модель взаимодействия внутреннего аудита и службы комплаенса для повышения эффективности финансового контроля в университетах. Данный подход включает теоретические основы, практические механизмы и показатели оценки и может быть применен руководством учреждений для принятия стратегических решений, управления рисками и обеспечения финансовой стабильности.

Ключевые слова: Высшее образование, финансовый контроль, внутренний аудит, служба комплаенса, комплаенс-риск, управление рисками, интегрированный контроль, механизм внутреннего контроля.

Abstract. The article examines issues related to ensuring the mutual coordination of internal audit and the compliance function in improving the financial control system in higher education institutions. The study analyzes the distribution of functions between internal audit and the compliance function, principles of independence and interaction, as well as mechanisms for identifying, assessing, and mitigating compliance risks. The author proposes an integrated model of

interaction between internal audit and the compliance function to enhance the effectiveness of financial control in universities. This approach includes theoretical foundations, practical mechanisms, and evaluation indicators and can be applied by institutional management for strategic decision-making, risk management, and ensuring financial stability.

Keywords: Higher education, financial control, internal audit, compliance function, compliance risk, risk management, internal control mechanism.

Kirish

Oliy ta'lim muassasalari mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy salohiyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, davlat va nodavlat manbalardan foydalangan holda faoliyat yuritish, shaffoflikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni saqlash bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Moliyaviy nazorat tizimi mazkur jarayonlarda muhim vosita bo'lib, u moliyaviy resurslar to'g'ri va qonuniy ishlatilishini nazorat qilish, xatolik va firibgarlik holatlarini aniqlash, shuningdek, ichki va tashqi audit orqali muassasaning moliyaviy faoliyatining ishonchliligini ta'minlash imkonini beradi.

So'nggi yillarda ichki audit va komplaens xizmatlari oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishdagi strategik mexanizm sifatida e'tibor qozonmoqda. Ichki audit moliyaviy va operatsion jarayonlarni mustaqil tekshiradi, kamchilik va xatoliklarni aniqlaydi, hisobotlar orqali rahbariyatni xabardor qiladi. Komplaens xizmati esa muassasaning qonunchilik, davlat standartlari, litsenziya va akkreditatsiya talablari, ichki me'yoriy hujjatlar hamda etika kodekslariga muvofiqligini nazorat qiladi. Shu bilan birga, ular o'rtasida integratsiyalashgan mexanizmni joriy etish universitet rahbariyati uchun risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish jarayonlarini optimallashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishni kafolatlash imkonini yaratadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishda ichki audit va komplaens xizmatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash bo'yicha nazariy va amaliy tamoyillarni o'rganish hamda integratsiyalashgan modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: ichki audit va komplaens xizmati funksiyalarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqotning natijalari oliy ta'lim muassasalari rahbariyati uchun moliyaviy risklarni samarali boshqarish, ichki nazorat tizimini mustahkamlash va komplaens xizmatining institutsional ahamiyatini oshirishda ilmiy va amaliy asos yaratadi.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston ta'lim tizimida moliyaviy nazorat, jumladan, komplaens nazoratning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Mahalliy iqtisodchi-olimlar bu sohada turli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borgan.

K.B. Axmedjanov ichki auditning metodologik asoslarini takomillashtirishga e'tibor qaratgan bo'lib, u audit jarayonlarining samaradorligini oshirish va xatoliklar hamda moliyaviy risklarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [1].

A.K. Ibragimov Budget nazorati va audit masalalarini tahlil qilgan, davlat va nodavlat tashkilotlarda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini o'rganib, budget hisobi tizimini modernizatsiya qilish yo'llarini taklif qilgan [2].

M.B. Kalonov korxonalarda komplaens xizmatini tashkil etish va uni boshqarish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan, u komplaens tizimini samarali ishlashini ta'minlash uchun ichki me'yoriy hujjatlar, xodimlarning mas'uliyati va risklarni boshqarish mexanizmlarini o'rganib chiqqan [3].

S.U. Mehmonov esa Budget hisobi sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, moliyaviy hisobotlarni tuzish va nazorat qilish tizimlarini mukammallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [4].

I.N. Qo'ziyev iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida audit xizmatini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan [5].

Sh.V. G'aniyev esa ta'lim tashkilotlarida moliyaviy nazoratning nazariy va amaliy asoslarini o'rganib, bu sohada ichki audit va komplaens tizimini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlagan [6].

Z.U.Hamidova Budget tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazoratni tashkil etish masalalariga e'tibor qaratib, xodimlar mas'uliyati, ma'lumotlar oqimi va risklarni boshqarish tizimini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [7].

Ushbu olimlarning tadqiqotlari moliyaviy nazoratning nazariy asoslarini va uning amaliy mexanizmlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy zamin yaratadi. Ularning ishlari ichki audit va komplaens nazoratni integratsiyalashgan shaklda tashkil etish, moliyaviy risklarni kamaytirish va universitetlarda shaffof moliyaviy boshqaruvni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini ochib beradi.

Biroq, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, OTMlarda, xususan oliy ta'lim muassasalarida komplaens nazorat va ichki audit masalalari yetarlicha rivojlantirilmagan. Ayniqsa, komplaens nazoratni tashkil etish, uning o'ziga xos xususiyatlariga mos nazorat tizimini yaratish va rivojlantirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bilan birga, komplaens nazoratning tashkiliy jihatlari, xodimlarning mas'uliyati, integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlari va universitetlar kontekstida risklarni boshqarish tizimi bo'yicha ilmiy ishlar kam. Shuning uchun OTMlarda moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish va ichki audit hamda komplaens xizmatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash masalalari yangi tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot usullari

Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish va ichki audit hamda komplaens xizmatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash masalalari tahlil qilindi. Ushbu maqsadda analitik-uslubiy tahlil orqali ichki audit va komplaens funksiyalari va ularning o'zaro bog'liqligi o'rganildi, solishtirma tahlil yordamida turli oliy ta'lim muassasalari va xorijiy universitetlarning tajribalari taqqoslandi, normativ-huquqiy tahlil orqali qonunchilik, me'yoriy hujjatlar va standartlar o'rganildi. Shuningdek, strukturaviy va funksional tahlil yordamida vazifalar taqsimoti, xodimlar mas'uliyati va ma'lumot oqimlari aniqlanib, ichki audit va komplaens xizmatlari o'rtasidagi integratsiyalashgan boshqaruv modeli yaratildi va uning samaradorligi

empirik kuzatuvlar hamda ekspert so'rovlari orqali baholandi. Natijada nazariy va amaliy yondashuvlar kombinatsiyasi asosida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

"Komplaens" (ingl. *compliance* — moslik, muvofiqlik, bo'ysunish) atamasi talab va ko'rsatmalarga muvofiq harakat qilish, belgilangan qoidalarga rioya etish ma'nosini anglatadi. Ilmiy va amaliy jihatdan u tashkilot faoliyatining amaldagi qonunchilik, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ichki siyosat va tartib-qoidalarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv hamda nazorat tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Komplaens tizimi, avvalo, komplaens-risklarni boshqarishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda qonunchilik talablari, tartibga soluvchi organlar me'yorlari, sohaviy standartlar va korporativ axloq qoidalariga rioya etmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy, moliyaviy va reputatsion xavflar nazarda tutiladi.

Komplaens sohasi bozorda halol va adolatli xulq-atvor standartlariga amal qilish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, mijozlar huquqlarini himoya qilish, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish (AML/CFT), korrupsiya va firibgarlikning oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ichki normativ hujjatlarni ishlab chiqish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bugungi kunda komplaens mustaqil professional faoliyat sifatida shakllangan bo'lib, ayniqsa moliya-bank sohasida keng joriy etilgan; tartibga soluvchi organlar tomonidan ichki nazorat va regulyator risklarni boshqarish bo'yicha qo'yilayotgan talablar esa uning institutsional ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida komplaens-riski deganda ta'lim to'g'risidagi qonunchilik, davlat ta'lim standartlari, litsenziya va akkreditatsiya talablari, shuningdek, muassasaning ichki me'yoriy hujjatlari va odob-axloq qoidalariga rioya etmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy, moliyaviy va reputatsion yo'qotishlar tushuniladi. Bunday risklar nazorat organlari tomonidan sanksiyalar qo'llanilishi, litsenziyaning to'xtatilishi yoki bekor qilinishi, moliyaviy jarimalar, grant va mablag'lardan mahrum etilish, shuningdek, ta'lim muassasasining nufuziga putur yetishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan komplaens-riski oliy ta'lim tizimida regulyator risk sifatida ham qoraladi.

Oliy ta'lim muassasalarida komplaens (yoki ichki nazorat) xizmati quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: regulyator risklarni aniqlash va baholash; risklar yuzaga kelishi ehtimoli hamda ularning oqibatlarini tahlil qilish; yangi ta'lim dasturlari, ilmiy loyihalar va innovatsion faoliyatni joriy etishda huquqiy va me'yoriy talablarga muvofiqlikni monitoring qilish; risklarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish va rahbariyatga tavsiyalar kiritish; komplaens tizimi samaradorligini baholash; manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish; talabalar hamda boshqa manfaatdor tomonlar murojaatlarini tahlil qilish va ularning huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish; autsorsing xizmatlarining iqtisodiy va huquqiy maqsadga muvofiqligini baholash; korrupsiya va akademik nohalollikka qarshi ichki hujjatlarni ishlab chiqish; korporativ madaniyat va professional etika qoidalariga rioya etilishini ta'minlash; nazorat va akkreditatsiya organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish. Shuningdek, muassasaning ichki

hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa komplaensga oid funksiyalar ham mazkur xizmat vakolatiga kiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida komplaens-nazorat tamoyillari rahbariyat va kuzatuv kengashi (yoki vasiylik kengashi) ning komplaens-risklarni boshqarish bo'yicha umumiy javobgarligiga asoslanadi. Rahbar organlar ta'lim to'g'risidagi qonunchilik, davlat ta'lim standartlari, litsenziya va akkreditatsiya talablari hamda ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiqlikni ta'minlovchi komplaens siyosatini tasdiqlashi va uning ijrosini muntazam baholab borishi lozim. Ijro etuvchi rahbariyat komplaens tizimini amaliyotga joriy etish, xodimlar va professor-o'qituvchilarni mazkur siyosat bilan tanishtirish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda komplaens-risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish choralari ishlab chiqish uchun mas'ul hisoblanadi. Komplaens funksiyasi tashkiliy jihatdan mustaqil bo'lishi, yetarli resurslar bilan ta'minlanishi va ichki audit xizmati bilan o'zaro hamkorlikda, biroq mustaqillikni saqlagan holda faoliyat yuritishi zarur (1-jadval).

Oliy ta'lim muassasalarida komplaens xizmati ta'lim dasturlarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, grant mablag'laridan foydalanish va xalqaro hamkorlik jarayonlarida normativ talablarga rioya etilishini monitoring qiladi.

Shuningdek, talabalar murojaatlari va shikoyatlarini tahlil qilish, akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi choralarni ishlab chiqish, xodimlar uchun etik me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini belgilash hamda tashqi nazorat va akkreditatsiya organlari bilan hamkorlik qilish komplaens tizimining muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Mazkur mexanizm oliy ta'lim muassasasining huquqiy barqarorligi, moliyaviy shaffofligi va institutsional nufuzini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval

Oliy ta'lim tizimida komplaens-nazorat tamoyillari [10]

No	Tamoyil nomi	Nazariy asos	Amaliy mexanizm	Baholash indikatorlari (KPI)	Kutilayotgan natija
1	Strategik javobgarlik tamoyili	Korporativ boshqaruv nazariyasi, institutsional yondashuv	Kuzatuv (vasiylik) kengashi tomonidan komplaens siyosatini tasdiqlash va yillik hisobotlarni ko'rib chiqish	Yiliga kamida 1 marta komplaens hisobotini ko'rib chiqish; tasdiqlangan siyosat mavjudligi	Strategik darajada nazoratning ta'minlanishi
2	Qonunchilikka muvofiqlik tamoyili	Huquq ustuvorligi prinsipi	DTS, litsenziya va akkreditatsiya talablariga mos ichki	Aniqlangan huquqbuzarliklar soni; tashqi tekshiruv natijalari	Normativ-huquqiy barqarorlik

			hujjatlarni ishlab chiqish		
3	Tizimlilik va uzluksizlik	Risk- menejment konsepsiyasi	Komplaens- risklarni doimiy monitoring qilish va revestr yuritish	Yangilanib boriladigan risk- revestr mavjudligi; monitoring davriyligi	Risklarni erta aniqlash
4	Mustaqillik tamoyili	Ichki nazorat va audit mustaqilligi prinsipi	Komplaens xizmatining alohida tuzilma sifatida faoliyat yuritishi	Tashkiliy tuzilma tasdiqlanganligi; to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga hisobot berish	Xolis va obyektiv nazorat
5	Shaffoflik va hisobdorlik	Ochiqlik va axborot oshkoraligi tamoyili	Rahbariyatga va kengashga muntazam yozma hisobotlar taqdim etish	Yillik/yarm yillik hisobotlar soni; ochiq e'lon qilingan ma'lumotlar	Institutsional ishonch oshishi
6	Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish	Etika va halollik prinsiplari	Manfaatlar deklaratsiyasi tizimini joriy etish	Deklaratsiya topshirgan xodimlar ulushi; aniqlangan holatlar	Akademik va boshqaruv halolligi
7	Akademik halollikni ta'minlash	Akademik integritet nazariyasi	Plagiatga qarshi nazorat, intizomiy komissiyalar faoliyati	Plagiat holatlari statistikasi; ko'rib chiqilgan intizomiy ishlar	Ta'lim sifati va ilmiy nufuz oshishi
8	Kadrlar malakasini oshirish	Inson kapitali nazariyasi	Komplaens bo'yicha trening va seminarlar o'tkazish	O'qitilgan xodimlar ulushi; treninglar soni	Xodimlarnin g huquqiy savodxonligi oshishi
9	Resurslar yetarliligi	Samarali boshqaruv modeli	Moliyaviy va kadr resurslarini rejalashtirish	Ajratilgan budjet hajmi; shtat birliklari soni	Tizim barqarorligi
10	Ichki audit	Uch chiziqli	Komplaens	Audit xulosalari;	Nazorat

	bilan integratsiya	himoya modeli (Three Lines Model)	faoliyatini ichki audit tomonidan tekshirish	aniqlangan kamchiliklar soni	samaradorligi oshishi
11	Risklarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish	Preventiv boshqaruv yondashuvi	Har bir aniqlangan risk bo'yicha harakatlar rejasi ishlab chiqish	Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ulushi	Salbiy oqibatlarining kamayishi
12	Tashqi manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik	Institutsional hamkorlik konsepsiyasi	Akkreditatsiya va nazorat organlari bilan tizimli muloqot	Tashqi tekshiruv natijalari; hamkorlik memorandumlari	Tashqi muvofiqlik darajasi oshishi

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining mablag'larini hisobga olish jarayonida eng avvalo Budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishi va ta'lim tizimida amalga oshiriladigan xarajatlarni moliyalashtirish jarayonini optimal variantlaridan foydalanish, Budjetdan ajratilgan va talabalardan belgilangan kontrakt asosida tushgan mablag'lardan samarali va oqilona foydalanish jarayonini komplaens nazorat qilinishining zaruriyati vujudga keladi. Shu sababli ta'lim tizimida Budjet va Budjetdan tashqari mablag'larning samarali sarflanishi va ularning maqsadli ishlatilishini nazorati muhim hisoblanadi, shu sababli ushbu masalada xalqaro tajribani o'rganish zaruriyati paydo bo'lmoqda. I. Mamatov tomonidan shunday fikr bildirilganligini ko'rishimiz mumkin: "Moliyaviy nazorat – bu qonunchilik tomonidan tartibga solinadigan faoliyatini tekshirish uchun maxsus tuzilgan Nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan amalga amalga oshirilib, nazoratchi va nazoratchi-auditorlar tomonidan barcha xo'jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy qonunchiligi va moliyaviy intizomiga rioya etishi, shuningdek ularning moliyaviy operatsiyalarining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi uchun maxsus tashkil qilingan nazorat-taftish boshqarmasining xodimlari tomonidan ushbu sub'ektlarning faoliyati qonun bilan tartibga solinishi tekshiriladi va ular bo'yicha tegishli tekshirish aktlari tuzilib yuqori tashkilotga beriladi va ular tomonidan moliyaviy intizomga rioya qilinishi, moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va qonunchilikka mos kelishiligi bo'yicha tegishli xulosalar beriladi" [8]. Demak moliyaviy nazorat eng avvalo qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish va uni natijalarini yuqori tashkilotda muhokama qilishdan iborat. Bunda moliya vazirligi qoshida maxsus tashkil qilingan nazorat-taftish boshqarmasining asosiy funktsiyalarini o'rganish muhim hisoblanadi. Shu jumladan nazorat taftish boshqarmasining xodimlari tomonidan ushbu sub'ektlarning faoliyati qonuniy asoslarga mos kelishiligi va uning tartibga solinishi tekshiriladi va ular bo'yicha tegishli tekshirish aktlari tuzilib yuqori tashkilotga beriladi va ular tomonidan moliyaviy intizomga rioya qilinishi, moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va qonunchilikka mos kelishiligi bo'yicha tegishli xulosalar beriladi.

Davlat moliyaviy nazorati milliy va idoraviy orqali amalga oshiriladi. Milliy moliyaviy nazorat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. U idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, ichki nazorat amalga oshirilishi yuqori tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan obyektlarga yo'naltiriladi. Idoraviy moliyaviy nazorat vazirliklar, kontsernlar, mahalliy hokimiyat organlarining tegishli bo'limlari va boshqalarning nazorat-taftish bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Uning obyekti quyidagi tizim muassasalarining ushbu mablag'lardan foydalanish va moliyaviy faoliyati hisoblanadi [8].

Budjet mablag'lari va Budjetdan tashqari fondlar ixtiyorida Budjet muassasalarining mustaqilligini ta'minlash daromad keltiruvchi faoliyat uchun iqtisodiy hayot faktlari ustidan moliyaviy nazoratning samarali mexanizmini yaratish zaruriyati paydo bo'ladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida moliyaviy nazoratning vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuqorida sanab o'tilgan tahliliy pozitsiyalar uchun Budjetdan tashqari jamg'armalarning rejalashtirilgan va haqiqiy daromadlari va xarajatlari hamda moliyaviy natijalar ustidan tezkor nazorat va salbiy moliyaviy natijalarning oldini olish;

- daromad keltiradigan faoliyat hisobiga olingan aktivlarni hisobga olishning to'liqligi va to'g'riligini va ulardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish;

- hisob-kitob va to'lov intizomining holatini nazorat qilish va muddati o'tgan qarzlarning oldini olish;

- soliq qonunchiligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish.

Oliy ta'lim tizimida Budjet muassasalari faoliyatidagi transformatsion jarayonlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar tarkibini va ularning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini kengaytirishga olib keladi [9].

Oliy ta'lim tizimida Budjetdan mablag' olinishi va uzlari tomonidan mablag' topishi natijasida ichki audit xizmatini samarali tashkil etishda va takomillashtirishda ularning nazoratini amalga oshirish jarayonida metodologik muammolar paydo bo'lmoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimidagi Budjet tashkilotlarida Budjet hisobini tashkil qilishda o'ziga xos jihatlaridan ham Budjet xam o'zi tomonidan ishlab topilgan mablag'larning tashkil topishi va ularning xarajat qilishida paydo bo'ladigan uslubiy-metodologik jihatdan va ularning faoliyati bo'yicha amaliy jihatdan yangi muammolar paydo bo'ladi va ularning hisobini yuritishda ushbu jarayonlarni inobatga olish lozim.

Oliy ta'lim tizimida davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun davlat organlari va davlat mablag'lari oluvchilarining faoliyatini moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati yordamida ushbu jarayonlarni nazorat qilish vazifasi vujudga keladi.

Oliy ta'lim tizimida moliyaviy nazorat va ichki audit masalasi ularning faoliyatini tashkil qilish va moliyaviy boshqaruv tizimining bir qismi hisoblanadi. Shunday qilib oliy ta'lim tizimida ichki audit bu – ichki auditor tomonidan belgilangan auditorlik amallari yordamida o'tkaziladigan, ta'lim tizimida ichki nazorat tizimini tashkil qilishning sifati va samaradorligini doimiy ravishda kuzatish, baholash va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish orqali faoliyatini yaxshilashg bo'yicha mustaqil va obyektiv faoliyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidagi Oliy ta'lim tizimidagi nazoratning tashkil qilinishini o'rganish natijasida ularni quyidagi shakllarda mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

1. Davlat moliyaviy nazorati-oliy ta'lim tizimining ish faoliyatini qonun hujjatlari asosida amalga oshirilganligini tekshirish, tugallangan davrda amalga oshirilgan faoliyatini tekshiradi, kamchiliklarni aniqlab tegishli dalolatnomalar tuzadi. Ushbu tuzilma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi qoshida tashkil qilinadi va uning faoliyatini moliya vaziri yoki ushbu sohani nazorat qiladigan moliya vazirining o'rinbosari tomonidan nazorat qilib boradi.

2. Ichki audit xizmati-oliy ta'lim tizimi faoliyatini to'g'ri tashkil qilinishi va amalga oshirilishini doimiy ravishda nazorat qiladi, nomuqofiqliklarni oldini olish uchun o'z maslahat va tavsiyalarini beradi hamda kamchiliklarni tuzatish choralari ko'radi.

3. Ichki nazorat-oliy ta'lim tizimida ish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot rahbari va barcha xodimlari vazifalarini belgilaydigan va amalga oshirishini ta'minlaydigan jarayondir. Ushbu vazifani Oliy ta'lim tizimida alohida belgilangan buxgalteriyada faoliyat yuritadigan shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu xodim tomonidan ta'lim tizimida amalga oshirilgan operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va ularning o'z vaqtida aks ettirilishini tekshiradi.

Xalqaro amaliyotga muvofiq, Budjet tizimni ijro etuvchi hokimiyat organida quyidagilarga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida ko'rib chiqish kerak:

- 1) Budjetni tuzish va ijro etishning belgilangan tartibiga rioya etilishi;
- 2) Budjet hisobotini tayyorlash va Budjet hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi (Budjet hisobotining ishonchliligini ta'minlash);
- 3) Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlash va amalga oshirish.

Ko'pchilik davlat moliyaviy nazorati va davlat ichki audit tizimini "maxsus" hisoblangan Budjet vakolati sifatida qabul qiladigan, tartibga soluvchi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan haddan tashqari rasmiylashtirilgan Budjet jarayonining ishtirokchilari, uning sifatli bajarilishini ta'minlash uchun xodimlar sonini ko'paytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslaydilar. O'z navbatida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi Budjet tashkilotlari uchun moliyaviy nazorat va ichki audit tizimlarini joriy etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy, uslubiy va tashkiliy hujjatlarni qabul qiladi. Davlat moliyaviy nazorati va Budjet tashkilotlari ichki audit xizmati vakillarining bajaradigan vazifalari bir-biriga o'xshasada, ularning maqsadi va ish uslublari jihatidan farq qiladi. Davlat organlarini moliyaviy boshqarish sifatini baholash davriy rasmiylashtirilgan jarayon bo'lib, u Budjet jarayoni va moliyaviy iqtisodiy faoliyatning barcha elementlarini qamrab oluvchi jarayonlarni har tomonlama baholash va tahlil qilishni ta'minlaydi.

Nazorat samaradorligiga rasmiy va mantiqiy, hujjatlar va faktlar asosidagi tekshirishlar kabi xilma-xil usullarni qo'shib foydalanish orqali erishiladi. Bundan tashqari Budjet ijrosining nazorati to'liq yoki qisman, kompleks yoki mavzuli, yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan nazorat turlariga bo'lish tekshirish hajmi yoki tekshirilayotgan obyektning to'liq qamrab olinishiga bog'liq.

Mutaxassislar guruhi belgilangan davr mobaynida va belgilangan dasturga binoan tashkilot, muassasaning moliyaviy faoliyatini har tomonlama tekshirib, hisobot va moliya intizomiga rioya qilinishini aniqlaydigan tekshirish kompleks tekshirish deyiladi.

Budjetdan mablag' oluvchi tashkilot va muassasalarning moliyaviy faoliyatini ayrim bo'limlari holatini tekshirish tematik tekshirish deb ataladi. Masalan, moddiy boyliklarning saqlanishi va ulardan foydalanishlikni tekshirish, moliyaviy natijalar aniqlanishining to'g'riligini tekshirish va boshqalar.

Kompleks yoki tematik tekshirishlarni o'tkazish chog'ida hujjatlar yalpi yoki tanlab (prezentativ) tekshirilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazoratni amalga oshirish 2 turga ichki va tashqi nazoratga bo'linadi. Bugungi kunda moliyaviy nazoratni ta'sirchanligini oshirishda jamoatchilik nazoratini o'rnini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Chunki jamoatchilik nazorati tizimli ishlasa muassasada moliyaviy mablag'larni xarakati qonuniy amalga oshiriladi.

Nazorat qilinayotgan jarayonlarga nisbatan o'tkazish vaqtiga qarab dastlabki hamda navbatdagi nazoratlarga bo'linadi.

Dastlabki nazorat - taxminlash, rejalashtirish va loyihalashtirish bosqichida, xo'jalik yoki moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishidan avval o'tkazilib, oqilona boshqaruv echimlari qabul qilinishiga xizmat qiladi. Uning maqsadi noqonuniy operatsiyalar, samarasiz xarajatlarning oldini olishdir.

Navbatdagi nazorat - xo'jalik va moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin o'tkazilib, tekshirilayotgan hujjatlarni va muassasaning butun moliyaviy holatini chuqur o'rganishi bilan farq qiladi.

Uning maqsadi tugallangan operatsiyalarni qonuniyligi, maqsadga muvofiqligini, to'liq va o'z vaqtida bajarilganligini aniqlashdir.

Oliy ta'lim tizimida komplaens nazoratni amalga oshirilishi ularning faoliyatining shaffofligini va korruptsiyadan holi ekanligini ta'minlaydi. Chunki oliy ta'lim tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati xodimlar orasida hamda jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida ta'lim tizimidagi xodimlarining yuqori axloqiy me'yorlarga sodiqligini, shuningdek, ular faoliyatida korruptsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo'l qo'ymaslikni aks ettiradi. Ushbu jarayonda asosiy xalqaro standart bo'lib umumqabul qilingan ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari – Foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti talablarini inobatga olgan holda oliy ta'lim tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va etakchi xalqaro amaliyot asosida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqiladi. Sir emaski, tashkilot rahbari undagi har bir xodim va uning faoliyatini nazorat qila olmaydi. Buning uchun samarali tizim kerak. Bunda, ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi boshqaruv tizimi" (Anti-bribery management systems) tashkilotga u qaysi mamlakatda faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar, korruptsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqishda, joriy etishda va takomillashtirishda yordam beradi. Ushbu standart tomonidan tashkilotlarda (davlat, xususiy yoki notijorat tashkilot va hokazo) korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali va profilaktik tizimini yaratishning xalqaro usullarini o'zida mujassam etgan, korruptsiyaga qarshi mukammal boshqaruv

tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Ushbu xalqaro standart faoliyatda korruptsiyaviy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan quyidagi yo'nalishlarga nisbatan qo'llaniladi:

- 1) davlat, xususiy va notijorat sektorlarida pora olish;
- 2) tashkilotlar tomonidan pora olish;
- 3) tashkilot nomidan yoki uning foydasiga ishlaydigan xodimlar tomonidan pora olish;
- 4) tashkilot nomidan yoki uning foydasiga ish olib boradigan hamkorlari tomonidan pora olish;
- 5) tashkilotga pora berish;
- 6) tashkilotning faoliyati bilan bog'liq tashkilot xodimlarga pora berish;
- 7) tashkilotning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamkorlariga pora berish;
- 8) to'g'ridan-to'g'ri yoki kimdir orqali (masalan, uchinchi shaxs tomonidan taqdim etilgan yoki qabul qilingan pora) pora berish kabi holatlar.

ISO 37001:2016 xalqaro standarti bo'yicha tashkilotni sertifikatlash uchun korruptsiyaga qarshi boshqaruv tizimni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, joriy qilingan tizimning standart talablariga muvofiqligini mustaqil audit o'tkazish orqali tasdiqlash lozim bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida ushbu siyosatni ta'lim faoliyatining ahamiyatini hisobga olgan holda qabul qilishlari, korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini, mavjud bo'lgan korruptsiya xavfi, tajribasi va mavjud manbalari asosida ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari lozim.

Ushbu jarayonda Oliy ta'lim tizimida korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) oliy ta'lim tizimida malakali talabalarni tayyorlash sohasida korruptsiyani tubdan yo'qotishga erishish;
- 2) ta'lim tizimida ishonchni oshirish va aholining ushbu sohada huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish;
- 3) oliy ta'lim tizimi faoliyatining barcha sohalarida korruptsiyani oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- 4) korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlarini, ularga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlashlashdan iborat.

Ichki audit xizmati tomonidan ichki audit maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish uchun ichki audit obyektlarida, shu jumladan, fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali aniqlangan obyektlarda ichki audit tadbirlarini o'tkazadi, natijalarini rasmiylashtiradi hamda taklif va tavsiyalar tayyorlaydi. Ichki audit xizmati bevosita vazirlik va idoraning birinchi rahbariga bo'ysunadi. Ichki audit xizmatining xodimi lavozimiga ichki audit bo'yicha milliy malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinadi. Malaka sertifikatiga ega bo'lmagan shaxslarning ichki audit xizmatining xodimi lavozimiga ishga qabul qilishga hamda ularning ushbu tizimlarda faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari ichki auditning asosiy funktsiyalari sifatida quyidagilar belgilangan:

1) masofaviy auditni keng ko'lamda qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida ichki audit obyektlari va yo'nalishlarini aniqlash yo'li bilan ichki audit tadbirlari samaradorligini oshiradi;

2) risk tahlilini amalga oshirish orqali mablag'lardan samarasiz foydalanish holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

3) moliyaviy ta'minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zaro nomuvofiqliklar, kamchiliklar va bo'shliqlarni aniqlash orqali ularni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;

4) davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan moliyaviy nazorat va tashqi audit natijalari bo'yicha aniqlangan Budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlariga kelgusida yo'l qo'ymaslik va oldini olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

5) Budjet tashkilotlarida Budjet mablag'lari boshqarilishi va Budjet hisobi yuritilishini maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida monitoring qiladi;

6) maxsus axborot tizimlaridan foydalangan holda, tender (tanlov) savdolarining o'tkazilishi va shartnomalar tuzilishini monitoring qiladi;

7) Budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari profilaktikasi va ularning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha takliflar beradi.

Oliy ta'lim tizimida ichki audit xizmatini samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Universitet va institutlarning ichki audit faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri ta'lim tizimidagi ehtimoliy tashqi va ichki risklarni aniqlash va tahlil qilish, risk darajasini minimallashtirish yoki yo'qotishlar imkoniyatini izlab topish va ularni minimallashtirish bo'yicha ish olib borilishi lozim.

Ichki auditning OTM ichidagi "baholash" faoliyatining boshqa turlari va xizmatlaridan ajralib turadigan qirradi uning mustaqil xizmat sifatida ish yuritishidir. Bunda ichki auditorlarga o'zlarining auditorlik vazifalarini bajarish jarayonida mustaqil-ochiq qarashlar, mustaqil mulohaza yuritishlariga imkon beriladi. Oliy ta'lim tizimida ichki audit uchun rejalashtirilgan maqsad va vazifalarga erisha olishini aniqlash maqsadida monitoring va tekshiruvga qo'l urishi juda muhim hisoblanadi.

Bunda Oliy ta'lim tizimini ichki auditning 5 bosqichli vazifasiga katta e'tibor berilishi lozim:

1. G'aznachilik tizimi uchun korporativ boshqaruv tuzilmasi orqali Oliy ta'lim tizimini nazorat qilish jarayonlarini aniqlash;

2. Ichki auditning rolini aniqlash;

3. Audit dasturini ishlab chiqish;

4. Zaruriy resurslarni olish;

5. Tekshiruv mexanizmlarini joriy etish.

Shunday qilib, Oliy ta'lim tizimida ichki audit o'tkazish uchun samarali ishlab turgan mexanizmi aynan shu vazifani bajarish uchun ajratilgan resurslar atrofida amalga oshiriladi. Shu sababli Oliy ta'lim tizimida ichki resurslar va G'aznachilik tomonidan ajratilayotgan mablag'larini nazoratini tashkil qilish natijasida O'zbekistonda Oliy ta'lim

tizimida ichki auditning qanday ishlashi va ichki auditning samarali rolining aniqlanishi kabi masalalarni tashqiliy ma'noda ko'rib chiqish, shu bilan birga uning faoliyatidagi turlarini aniq taqsimlab chiqilishi lozim.

Natijada ichki auditning doimiy harakatdagi tekshiruvlarini ta'minlash va samarali faoliyatini baholashga yordam beruvchi mexanizmlarni ta'sis etish zarurdir.

Bunda Oliy ta'lim tizimi yordamida g'aznachilik tizimida ichki auditga eng ko'p mos keladigan rol masalasini hal etishdan avval, g'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan amaliyotlarni ta'minlash va qo'llab quvvatlash uchun ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv tuzilmasini aniqlab olish lozim bo'ladi. O'z o'rnida, ichki auditning roli tanqidiy darajada korporativ boshqaruv tuzilmalari amaliyotlarining samaradorligiga va g'aznachilikning ishlash jarayoniga ijobiy ta'sir qilishi lozim. Xususan, protsessing markazlari sifatida harakat qilayotgan viloyatlar va tumanlardagi g'aznachilik Boshqaruvlariga yuklatilgan taxmin qilinayotgan va kelgusidagi amaliyotlariga nisbatan bog'liqdir.

Oliy ta'lim tizimi tarkibida katta rahbarlar uchun ichki audit tuzilmasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari salohiyati yuqori risk sohalariga mo'ljallangan audit dasturlarini ishlab chiqishda ko'maklashishlari uchun juda muhimdir.

Oliy ta'lim tizimida ichki auditorlar iqtisodiy faoliyat voqeliklari natijalarini sarhisob qiluvchi rahbariyat tomonidan qilingan tasdiqnomalarning va moliyaviy hisobotlardagi va buxgateriya hisobiga aloqador bo'lgan boshqa xabarlar va hujjatlardagi ma'lumotlarning qonuniyligini tekshirish maqsadida ichki audit dasturini ishlab chiqadilar. An'anaviy tarzda bunday moliyaviy hisobotlarga nisbatan ichki auditorlar o'zlarining quyidagilar yo'nalishlar bo'yicha tegishli fikrlarini shakllantiradi:

- 1) amaldagi qonunlar, qoidalar, me'yorlar va ko'rsatmalarga muvofiqlilik darajalari;
- 2) ichki nazorat choralarini ishlab chiqishning, joriy etishning va ishlashining samaradorligi;
- 3) moliyaviy va amaliyot ma'lumotlarining va ularning asosini tashkil etuvchi yozuvlarning to'liqligi, aniqligi va ishonchliligi;
- 4) ishbilarmon amaliyotlar, dasturlar yoki xizmatlarni etkazib berish jarayonlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqliligi.

Ichki audit faoliyatida g'aznachilik funktsiyasi va uning faoliyat turlari nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Oliy ta'lim tizimida har bir g'aznachilik doirasida audit faoliyati sohasining negizini barcha moliyaviy va buxgalteriya tizimlarini tekshirish vazifasi tashkil etadi. Ichki audit maqsadining bunday boshlang'ich sohasidan tabiiy siljib borishi ichki auditorlar uchun ularning faoliyatini boshqa ish jarayonlarini qamrab olishi hamda ta'lim tizimining ishlashini ta'minlash bo'yicha faoliyatni tekshirishi, masalan, to'lov vedomostlari, ta'minot va hisob yuritish jurnallari kabi funktsiyalar bilan kengaytirishga olib keladi.

2-jadval

Ichki audit va komplaens xizmatining integratsiyalashgan modeli

№	Funktsiya / Tamoyil	Ichki audit	Komplaens xizmati	Integratsiya mexanizmi	Natija / KPI
1	Risklarni aniqlash	Moliyaviy va operatsion risklarni aniqlash	Qonunchilik va ichki me'yorlarga muvofiqlik risklarini aniqlash	Ma'lumot almashinuvi va risk-reyestr birlashtiriladi	Risklar ro'yxati yangilanadi
2	Baholash va monitoring	Tekshiruvlar va nazorat	Komplaens-risklar baholash	Birgalikda indikatorlarni ishlab chiqish	Risk baholash natijalari yaxlitlanadi
3	Tavsiyalar berish	Audit xulosalarini taqdim etish	Risklarni kamaytirish choralarini tavsiya qilish	Rahbariyatga birgalikda hisobot	Qarorlar sifati oshadi
4	Hisobot berish	Rahbariyatga mustaqil hisobot	Rahbariyatga tavsiyalar va monitoring hisobotlari	Hisobotlar birlashtirilgan formatda taqdim etiladi	Nazorat samaradorligi oshadi
5	Resurs va mustaqillik	Audit mustaqilligini ta'minlash	Komplaens faoliyati uchun yetarli resurslarni ta'minlash	Tashkiliy va funksional mustaqillik saqlanadi	Samarali boshqaruv va nazorat

Ichki audit va komplaens xizmatining integratsiyalashgan modeli oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu model quyidagi asosiy funksiyalar va tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, **risklarni aniqlash** funksiyasida ichki audit moliyaviy va operatsion risklarni aniqlashga mas'ul bo'lsa, komplaens xizmati qonunchilik va ichki me'yorlarga muvofiqlik risklarini aniqlaydi. Integratsiya mexanizmi sifatida ma'lumot almashinuvi va risk-reyestr birlashtiriladi, natijada risklar ro'yxati yangilanadi va rahbariyatga aniq ko'rinadi.

Ikkinchidan, **baholash va monitoring** jarayonida ichki audit tekshiruvlar va nazoratni amalga oshiradi, komplaens xizmati esa komplaens-risklarni baholaydi. Birgalikda ishlab chiqilgan indikatorlar orqali risklar baholash natijalari yagona tizimda integratsiyalanadi va monitoring samaradorligi oshadi.

Uchinchidan, **tavsiyalar berish** funksiyasida ichki audit audit xulosalarini taqdim etadi, komplaens xizmati esa risklarni kamaytirish choralarini tavsiya qiladi. Rahbariyatga birgalikda taqdim etilgan hisobotlar qarorlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, **hisobot berish** tamoyili doirasida ichki audit rahbariyatga mustaqil hisobot beradi, komplaens xizmati esa tavsiyalar va monitoring hisobotlarini taqdim etadi. Hisobotlar birlashtirilgan formatda taqdim etilganda nazorat samaradorligi oshadi va qaror qabul qilish jarayoni soddalashadi.

Beshinchidan, **resurs va mustaqillik** tamoyilida ichki auditning mustaqilligi ta'minlanadi, komplaens xizmati uchun esa yetarli resurslar ajratiladi. Tashkiliy va funksional mustaqillik saqlanganda integratsiyalashgan boshqaruv modeli samarali ishlaydi va moliyaviy nazorat jarayonlari optimal darajada tashkil etiladi.

Shunday qilib, ichki audit va komplaens xizmatining integratsiyalashgan modeli oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazoratni kuchaytirish, risklarni samarali boshqarish va rahbariyatga qaror qabul qilishda to'liq va yagona ma'lumotlar bazasini taqdim etish imkonini beradi (2-jadval).

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish uchun ichki audit va komplaens xizmatlarining integratsiyalashgan tizimi zarur. Ichki audit moliyaviy va operatsion risklarni aniqlash, komplaens xizmati esa qonunchilik va ichki me'yorlarga muvofiqlik risklarini aniqlash orqali o'zaro to'ldiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bu integratsiya nazorat jarayonining sifatini oshirish, risklarni aniqlash va ularni kamaytirish choralarini optimallashtirish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan model orqali risklarni baholash va monitoring qilish tizimi birlashtiriladi. Ichki audit va komplaens xizmatlari birgalikda ishlab chiqilgan indikatorlar va yagona risk-reyestr orqali barcha moliyaviy va komplaens-risklarni tizimli ravishda kuzatadi. Bu esa rahbariyatga tezkor, aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish imkonini yaratadi.

Ichki audit va komplaens xizmatining tavsiyalar berish mexanizmi qaror qabul qilish jarayonini sifatli qiladi. Audit xulosalari va komplaens tavsiyalari birlashtirilgan hisobot shaklida rahbariyatga taqdim etilganda, moliyaviy boshqaruv va risklarni kamaytirish bo'yicha strategik qarorlar samarali amalga oshiriladi.

Hisobot berish va resurslarni ta'minlash tamoyillari orqali ichki auditning mustaqilligi saqlanadi, komplaens xizmati esa zarur resurslar bilan ta'minlanadi. Bu integratsiyalashgan yondashuv moliyaviy nazorat jarayonini optimal darajada tashkil etish, shaffoflikni oshirish va xodimlarning mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari rahbariyati ichki audit va komplaens xizmatlarini integratsiyalashgan model asosida tashkil etsin; xodimlarni muntazam malaka oshirish, risk-reyestrlarni yangilash, indikatorlar va tavsiyalarni doimiy monitoring qilish; shuningdek, ichki me'yoriy hujjatlar, komplaens va audit siyosatini doimiy takomillashtirib borish orqali moliyaviy nazorat samaradorligini oshiribborish tavsiya qilinadi. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv jarayonlarini shaffof qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar r o'yxati

1. Axmedjanov K.B. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. iqt. fan. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2016. – 76 b

2. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. (2009) "Budjet nazorati va auditi" O'quv qo'llanma / T.: «infoCOM.UZ». 192 b.;
3. Kalonov M.B. Korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish: iqt. fan. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2019.-52 b.
4. Mehmonov S.U., Kuliboyev A.Sh. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobi. O'quv qo'llanma, «Iqtisod-moliya» 2018. 186 b.
5. Qo'ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. iqt. fan. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2017. – 70 b.
6. G'aniyev Sh.V. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta'lim tizimi misolida). iqt. fan. nom. dis. avtoreferati. –T.: O'z R BMA., 2008. 28 b.
7. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari. Monografiya. – T.: "VNESHINVESTPROM" 2021. 183 b.
8. Mamatov I.A. Oliy ta'lim tizimida komplaensi nazorat tizimini takomillashtirish // *Academic research Journal In volume 1. Issue 4 of Academic research journal 2022. P. 41-47.*
9. Mirzoev B. Davlat moliyaviy nazorati tizimida samaradorlik auditi: amaliyotga yoriy etilisining muhimligi va istiqbollari // *Ilmiy taraqqiyot* 3.1 (2022): 837-847.
10. Mamatov I.A. Issues of increasing the efficiency of financial accounting by improving the compliance control system in the higher education // *International journal of management, IT and Engineering VOLUME 12 / ISSUE 7 /ISSN: 2249-0558/ Impact factor:7.119/ <http://www.ijmra.us> P. 12-17. 7 July 2022.*

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

